

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE PLACE OF MAHMUD AZ-ZAMAKSHARI'S WORKS IN THE LITERARY ENVIRONMENT OF KHORAZM***Azamat Pulatovich Atayev**PhD, associate professor acting**Tashkent University of Applied Sciences**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: azamatatayev79@gmail.com***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic language, historical source, literary source, literary critic, hadith scholar, puberty, eloquence, source study, textual criticism.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article briefly describes the role of the works of Mahmud al-Zamakhshari in the literary environment of Khorezm, confessions about Mahmud az-Zamakhshari in the Arabic fiction of Khorezm. Mahmoud al-Zamakhshari is recognized not only in the science of tafsir, an expert in the Arabic language, rhetoric and eloquence, literary writing and poetry, as an example of his work "Nawabigul Kalim" and other articles. In addition, based on the works of Zamakhshari "Maqamot" and "Makolot", the finer aspects of the rhetoric of Arabic literature, his mastery of the creation of words and his impeccable dedication to the art of word formation are highlighted. This article presents new scientific information about the correct understanding and interpretation of the literary heritage of Mahmud al-Zamakhshari.

XORAZM ADABIY MUHITIDA MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY ASARLARINING O'RNI*Azamat Pulatovich Atayev**PhD, dotsent v.b.**Toshkent amaliy fanlar universiteti**Toshkent, O'zbekiston**E-mail: azamatatayev79@gmail.com***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: arabiyzabon, tarixiy manba, adabiy manba, adabiyotshunos, xadissshunos, balog'at, fashohat, manbashunoslik, matnshunoslik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitida Mahmud az-Zamaxshariy asarlarining o'rni, Mahmud az-Zamaxshariy haqida zamondosh ulamolarining e'tiroflari

hamda Xorazmdagi arabiyzabon badiiy adabiyot muxtasar bayon qilingan. Mahmud az-Zamaxshariy nafaqat tafsir ilmida, balki arab tili mutaxassisi, balogʻat va fasohat bilimdoni sifatida, shuningdek, adabiy yozuvchilik va sheʼriyatda ham eʼtirof etilishi taʼkidlanib, uning turli xil maqolalari va maqomatlari, qofiyali hikmatlari, “Navobigʻul kalim” asari yoki boshqa keng tarqalgan matnlaridan parchalar izohlab berilgan.

Ushbu maqola Mahmud az-Zamaxshariy adabiy meroslarini toʻgʻri tushunish va izohlashda yangi ilmiy maʼlumotlar taqdim etadi.

МЕСТО ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАХМУДА АЗ-ЗАМАКШАРИ В ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ ХОРАЗМА

Азамат Пулатович Атаев

PhD, доцент и. о.

Ташкентский университет прикладных наук

Ташкент, Узбекистан

E-mail: azamatataev79@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, исторический источник, литературный источник, литературовед, хадисовед, красноречие, источниковедение, текстология.

Аннотация: В данной статье кратко описывается роль произведений Махмуда аз-Замахшари в литературной среде Хорезма, признания о Махмуде аз-Замахшари в арабской художественной литературе Хорезма. Махмуд аз-Замахшари признан не только в науке тафсира, знаток арабского языка, риторики и красноречия, литературного письма и поэзии в примере его труд «Навабигул Калим» и других статей. Кроме того, на основе трудов Замахшари «Макамот» и «Маколот» освещаются более тонкие аспекты риторики арабской литературы, его мастерство в создании слов и его безупречная приверженность искусству словосозидания. В данной статье представлена новая научная информация о правильном понимании и интерпретации литературного наследия Махмуда аз-Замахшари.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasi oʻziga xos yagona tarixiy-madaniy makon sifatida jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan taʼsir koʻrsatgan. Ayniqsa, “Islom madaniyatining oltin asri” deb eʼtirof etiladigan IX–XII asrlarda oʻlka hududidan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom

Moturidiy, Burhoniddin Margʻinoniy, Abul Muʻin Nasafiy kabi ulugʻ ulamolar yetishib chiqdi va butun musulmon olamining faxru iftixoriga aylandi. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari oʻnlab buyuk allomalarning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariy taraqqiyotga beqiyos taʻsir koʻrsatdi. Xususan, Zamaxshariy ham oʻz davri va kelajak avlod uchun dasturul amal boʻladigan asarlari bilan kishilik tarixiga oʻz nomini muhrlab ketgan allomalardan sanaladi [1:16].

Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad ibn Zamaxshariy XI–XII asrlar Xorazm adabiy muhitida arab tilida ijod qilgan eng ulugʻ mualliflardan, mashhur yozuvchilardan biridir. Zamaxshariyning bebaho nasihat va irshodlardan iborat asarlariga butun olamda eʻtibor qaratilishi, albatta, bizda iftixor tuygʻusini uygʻotadi. Uning taʻlifotlari yuqori ilmiy darajada boʻlib, diniy-tarbiyaviy mazmundagi asarlari ham alohida muhim oʻrin tutadi. Bu borada muallifning “al-Kashshof”, “Mufasssal”, “Asosu-l-balogʻa” singari asarlariga nazar tashlasak kifoya.

ASOSIY QISM

Mahmud Zamaxshariy nafaqat tafsir ilmida, arab tili mutaxassisi, balogʻat va fasohat, adabiy yozuvchilik va sheʻriyatda ham tan olingan. Adiblar, muhaddis va fuqaholarga ham ustozlik qilgan, oʻta teran fikrlari bilan boshqalardan ajralib turgan. Shu sababli, Zamaxshariyning turli yurtlardan shogirdlari ham koʻp boʻlgan. Xususan, Zamaxsharda Abu Amr Omiribril-Hasanas-Samir, Tabaristonda Abul Mahosin Ismoil ibn Abdulloh Tuliyy, Abyurtda Abul Mahosin Abdurrahim ibn Abdullohal-Bazzoz, Samarqandda Abu Saʻd Ahmad ibn Mahmud ash-Shoshiy va boshqalar Zamaxshariyning oʻzlariga ustoz deb bilishgan [2:120].

Shuningdek, Zamaxshariyning ilmi, fazli va odobi xususida zamondoshlari ham, tarixchilar ham maqtab, ulugʻlab yozishgan. Jumladan, Yoqut Hamaviyyu haqida aytadi: “Tafsir, nahv va odob ilmlarida imom boʻlgan. Ilmi keng, fazli katta, turli xil ilmlarni puxta bilimdoni boʻlgan” [3:126].

Samʻoniy aytadi: “Zamaxshariy adabiyot va nahv ilmida zarbulmasal (oʻrnak boʻladigan inson) edi”. Ibn Xallikon esa shunday deganlar: “Hech bir eʻtirozsiz oʻz zamonasining mutloq imomi boʻlgan. Uning fanlaridan foydalanish uchun hamma safarga belbogʻlaydi” [4:120].

Qofti yuk ishi haqida aytadi: “Har bir ilmdan Mahmud Zamaxshariyga kerak boʻlgan bir tarafi berilgan. Tillarning har bir nozik taraflari u kishida mujassam edi. Uning makoni va zamoni bilan hamma zamon va makonlar sharaflari boʻldi. Mahmud Zamaxshariy yashagan davrda nazm va nasr boʻyicha unga yetadigan hech bir odam boʻlmadi. Odob va sheʻr borasida qilichlarni oʻtkiraydigan charxga aylandi. Uning fazilatli yulduzi bilan kishilar hidoyatlandilar, uning aql chaqmoq toshi bilan uchqun oldilar”.

U kishi haqida imomlarning peshvosi Al-Mavaffaq ibn Axmad Al-Makkiy shunday deydi: “Xorazm faxri boʻlmish Zamaxshariy kelishlaridan oldin Xorazm Abu Bakr Xorazmiy

bilan gullab-yashnagan edi, Zamaxshariy bilan faxrlanishda Xorazm xatoga yo‘l qo‘ymadi [5:392].

Imom Zamaxshariyning nasr va nazmdagi maqom otlari va maqolalari (ya’ni “Atvoquz zahab” asari) zamonimizgacha juda kam yetib kelgan. Asosan, bizga Zamaxshariy umrining ikkinchi qismi, ya’ni tavba qilgandan keyingi davridagi she’rlari yetib kelgan.

Mahmud Zamaxshariyning turli xil maqolalari va maqomatlari, qofiyali hikmatlari, shuningdek, “Navobig‘ul kalim” asari yoki boshqa keng tarqalgan matnlariga qaraydigan bo‘lsak, uning adabiy yozuvchi bo‘lganini anglaymiz.

Shuni alohida qayd qilish o‘rinliki, Zamaxshariy balog‘at ilmi asoslari va nozik joylarini yaxshi anglagan o‘ta hassos ijodkor olim bo‘lish bilan birga so‘zlarni yasash borasida ham ustaligi bilan ajralib turgan. U o‘z asarlarida badi‘ilmiga komil rioya qilish, imkon qadar she’rda qofiyani to‘g‘ri tanlash kerakligini ta’kidlaydi. Buning sababi, maqom ategalarining lug‘at ilmiga yaqinroq bo‘lganidandir. U asarlarida ma’ruza uslubini tanlaganiga asosiy sabab Hasan Basriy singari oldingi fan olimlarining kitoblari bilan tanishib, ulardan ta’sirlanganidir.

Zamaxshariy Hasan Basriyning o‘ziga xos jihatlarini gapirib o‘tadi, undan ta’sirlanadi, unga o‘xshashga harakat qiladi va o‘z ini unga taqqoslaydi. U Iskandariya hofizi Abu Tohir Salafiya yo‘llagan quyidagi gapida ham aynan shunga urg‘u bergan:

“Allomalar bilan o‘zimni solishtiradigan bo‘lsam, men xuddi osmonning ochiq-oydin chiroqlari oldida arzimam va ko‘rinmaydigan kichik yulduzga o‘xshayman. Daryo bo‘lib quyiladigan yomg‘irli bulutlar oldida umuman suvsiz bulutcha singariman.

Poygada hammadan oldinda ilgarilayotgan otlar oldida eng oxirida yetib keladigan toychoqqa o‘xshayman. O‘z o‘ljasiga tashlanayotgan yirtqich qush oldida esa zaif va inidan chiqa olmaydigan qushchaga yanglig‘man.

Ilm ikkita eshigi bor bir shahardir. Birinchi eshik ilmni olish va uni anglash bo‘lsa, ikkinchi eshik ilmni yoyish va univoyat qilishdir. Men mana shu ikkala eshikdan kiradigan bo‘lsam, bu o‘rinda mening molim arzimagan, sifatsiz bo‘lib qoladi. Ikkala eshikning oldida mening soyam eng kichik toshdan ham kichikdir.

Rivoyatga keladigan bo‘lsak, sahobalarga yaqin zamonda tug‘ilganim, oilam shajarasi ularga yaqin bo‘lgani bilan xuddi oldimdagi ariqdan suvi cholmayotgan kishidekman. Ilm olish bobida esa men xuddi yaqinidagi suvga ham yeta olmayotgan kimsadekman, bu suvdan hatto og‘zimni ho‘llyolmayotgandek tuyuladi menga” [3:132–133].

Yana Zamaxshariy tavozeli inson bo‘lgani haqida o‘zlarining so‘zlaridan quyidagilarni o‘qiymiz: *“Meni ortimdan maqtab gapirayotganlar, maqtovlarsizlarni g‘ururlantirib qo‘ymasiz, chunki bu yolg‘on! Ichimdagi xunuk o‘zligimni sizlar bilmaganingiz sababli bu soxta g‘ururlanish*

bo'lib qoladi. Musulmonlar chiroyli nasihat qilganim uchun, manfaatdorlar ularning yonini olganim, hunarmandlar esa o'zlariga mening foydam tekkani sababli meni yaxshi ko'rishar?!

Inson qadrini tushiradigan safsata gaplar va amallardan o'zimni olib qochganim, o'zimga tegishli ishlarga e'tibor berganim, menga kerak bo'lmagan narsalardan yuz o'girganim uchun men ularning ko'zlariga ulug' ko'rinib qolgandirman?!

Men haqimda noto'g'ri gapirishdi, men ega bo'lmagan xislatlar ila meni ulug'lashdi. Men bu maqtovlarni o'zimga ravo ko'rmayman. Men Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning gaplariga Hasan Basriy rohimahulloh aytganlaridek amalqilaman: "Sizlarning eng yaxshingiz bo'lmasam ham sizlaga voliy (hokim) qilib tayinlandim.

Meni izlayotgan insonlarga: Kim bilan uchrashsam-da, kimdan ilm olgan bo'lsam ham, meni ilmi bu darajada yuqoriga chiqib ketmadi. Qo'limdan kelgani shu bo'ldi", – deb ichimdagi rost holatimni, ilm darajamni ko'rsatib berdim".[6:22].

Yuqoridagi kitobda yozilgan satrlardan ko'ramizki Zamaxshariy o'zining tengdoshlari, asrdoshlarini kuzatgan. Ularning gaplarini, xabarlarini eshitgan. Ilm va rivoyatga suyangan holatda, ulardan oldingi olimlarning gaplarini o'zlashtirgan, ulardan o'rnak olganini aytgan.

Zamaxshariyning ulug'vorligi uni o'z vatandoshlarini ko'rmaslik, ulardan uzoqlashishga olib keldi. U nazmda ifodalagan mazkur holatni biz quyida nasriy tarjimasini keltiramiz: *"Ko'pincha yaxshi sifatlar ila vasflangan kishining ham yomon amali bo'lishi mumkin, halim vateran ilmi deb ta'riflangan kishi bu ikki sifatdan mutlaqo uzoq bo'lishi mumkin (ya'ni ko'p odamlar borki, ularni johillar xulqi chiroyli deb o'ylaydilar, lekin aslida ular nuqson va qabihliklarga to'la bo'ladilar. Ilm va halimli kesa ulardan ancha yiroqda bo'ladi)"[6:101].*

Zamaxshariy o'z davrida g'aribligini aytib, zamonasi hokimlaridan ham shikoyat qilganini ham kuzatamiz: *Ey Abulqosim, o'tgan umringga afsuslar bo'lsin! Sen o'z ismingni, ilmingni qoldirishga qancha harakat qilding-u, o'zingni qo'l bilan ko'rsatishlariga qancha harakat qilding?! Bu seni ancha charchatgan bo'lsa-da, senga bir xurmo po'stlog'ichalik yordam bermadi. Sen esa: "Qo'l bilan ko'rsatish – chiroylilik, mashhurlik esa– komillikdan", deb o'ylading. Ey, g'ofil banda! Komillik nima ekanini bilasanmi o'zi?!*

Komillik bu yashirincha amal qilishdir. Odamlar uni tanimaydi, undan qochadi. Aslida, haqiqiy komillik Alloh zikri bilan bo'ladi. Mana shuninggina darajasi yerda ulug' bo'ladi. Buni esa odamlar yomon ko'rishi, ulug'lamasligi ham mumkin, qo'l bilan ko'rsatadiganlar, yordamchilari ham bo'lmasligi mumkin, lekin Alloh nazdida ulug' martabaga egadir" [7:171].

XULOSA

Yuqoridagi matnlar tahlili asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Xorazm adabiy muhitida Mahmud Zamaxshariy asarlari o'ziga xos muhim o'rin tutadi. Alloma Zamaxshariyning Grammatik asarlarini o'rganish orqali arab tilining morfologiya va sintaksisini puxta egallash,

tafsir ilmiga oid asarlarini o'zlashtirish bilan Qur'oni karim oyatlarini teranroq va sof e'tiqod asosida tushunish imkoniga ega bo'lar ekanmiz, ayni vaqtda, Mahmud Zamaxshariyning adabiy asarlari tadqiqi ham davr adabiy muhitini chuqurroq anglashda, ijtimoiy-siyosiy holatlarni tahlil qilishimizda qimmatli ma'lumotlar beruvchi asosli manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021
2. Ahmad Muhammad Hufiy. Az-Zamaxshariy. – Qohira: Dorul fikral-arabiya, 1966.
3. Yoqutal-Hamaviy. Mu'jamu-l-udabo. – Bayrut: Maktaba Dor G'arbal-Islamiy, 1993.J.19
4. Ibn Hallikon, Vafiyatula'yon. – Bayrut: Dorus Sodir, 1978. – J. 19.
5. Yoqutal-Hamaviy. Mo'jamul adab fiy mo'jamil alqob. – Damashq: Maktaba Haysiyatual-Dimashq, 1933. – J. 4.
6. Mahmud Zamaxshariy. Atvoq uz-zahabfil- mavoiz val-xutab, Ahmad Abdu-Tavvob Avaz tahqiqi. – Qohira: Dorul fazilat, 1994.
7. Mahmud Zamaxshariy, Maqomotu-z-Zamaxshariy. – Bayrut: Dorul kutubil-ilmiya, 1982.
8. Абу Мансур Саолибий. Ятимат ад-дахр фи маҳосин аҳл ал-аср. Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. – Тошкент: Фан. 1976.
9. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1983.
10. Mahmud Zamaxshariy. Al-Kashshofan haqiq g'avomidi-t-tanzil va uyuni-l-aqoviyli fivjuhi-t-ta'vil. – Qohira: Dorulfazilat, 1966.